

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

5-2022

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

**B.Sh.Shermuhhammadov, A.A.Ergashev**

Alohida ta'limga ehtiyoji bor bo'lgan o'quvchilarga ta'lim- tarbiya berishni takomillashtirish omillari ..... 7

**J.E.Tursunov**

O'quvchilarning kreativlik qobiliyatlarini shakllantirishda fanlararo bog'lanish..... 12

## FALSAFA, SIYOSAT

**N.S.Normatov, Z.S.Jumanov**

Bemorlarning huquqlarini amalga oshirish bilan bog'liq tibbiy xizmatlarda raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektdan foydalanish istiqbollari..... 18

**M. B.Xudaybergenova**

Oliy ta'lim muassasalari talabalari orasida mutolaa madaniyatini shakllantirish: joriy muammolar va yechimlar tadqiqoti ..... 26

## TARIHX

**M.H.Isamiddinov, N. Sh.Kambarov**

Fag'onaning ilk bronza davri jamoalari ..... 30

**O.V.Mahmudov**

«O'rta asr Yevropa tarjima markazlari» tushunchasi va uning ilmiy iste'moliga oid..... 36

**N.Sh.Kambarov, I.S.Xakimova, A.R.Poziljonov**

Jaliltepa yodgorligining Farg'ona vodiysi qadimgi davri madaniyatlaridagi o'rni ..... 45

**D.A.Aytimova**

Qoraqalpog'istonda dastlabki kutubxonalarining shakllanishi va rivojlanish tarixidan ..... 49

**B.M.Abdullayev, N.Sh.Kambarov, A.R.Poziljonov**

Andijon viloyatidagi Xonobod-1 yodgorligida ikkinchi mavsum dala tadqiqot natijalari ..... 54

**Sh.T.Quldashev**

“Tarixi shavqiy” asari: topilishi va ilmiy tahlil ..... 66

**Q.Sulaymonov, D.Madaminov**

Yangi bilimlarni o'zlashtirishda tez o'qishning ahamiyati ..... 72

**Z.N.Xatamova**

Qo'qon xonligi moliyaviy tizimiga elchilik masalalarining ta'siri: Xudoyorxon zodaning “Anjum at-tavorix” asari asosida ..... 76

**I.M.Burxonov**

Qo'qon xonligi tarixini o'rganishda Asomiddin O'rinboyev ilmiy tadqiqotlarini o'rganilganlik darajasi ..... 84

**A.N.Maxmudova**

R.X.Sulaymonov tadqiqotlarida qadimgi Sug'd moddiy madaniyati muammolari ..... 88

**A.Sharofiddinov, D.Q.Mukarramov**

Toshkent yeparxiyasiga boshchilik qilgan ruhoniylar faoliyati tahlili ..... 91

**D.A.Ismoilova**

Turkiston o'lkasida kon-metallurgiya tarixidan (XIX asr oxiri - XX asr boshlari). ..... 96

**E.L.Gasanov**

Ganja shahrini ko'chish tarixining tadqiqi haqida ..... 101

## ADABIYOTSHUNOSLIK

**A.G.Sabirdinov**

Mirtemirning she'riy mahorati xususida ..... 106

**Z.A.Rahimov**

Tarixiy romanda syujet va xarakter ..... 110

**F.Isomiddinov**

Irim-sirimlar ..... 115

**D.M.Xoshimova**

«Boburnoma»dagi shaxs va xarakter munosabatini ifodalovchi qiyosiy vositalarning tarjimada berilishi ..... 120

**QORAQALPOG'ISTONDA DASTLABKI KUTUBXONALARNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH TARIXIDAN**

**ИЗ ИСТОРИИ ФОРМИРОВАНИЯ И РАЗВИТИЯ ПЕРВЫХ БИБЛИОТЕК В КАРАКАЛПАКСТАНЕ**

**FROM THE HISTORY OF THE FORMATION AND DEVELOPMENT OF THE FIRST LIBRARIES IN KARAKALPAKSTAN**

**Aytimova Dilbar Aymuratovna<sup>1</sup>**

<sup>1</sup>Aytimova Dilbar Aymuratovna

– O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti Nukus filiali “Madaniyatva kutubxona faoliyati” kafedrasida o‘qituvchisi.

**Annotatsiya**

*Kutubxonalar faoliyatini tizimli ravishda tartibga solish, ulardagi ilmiy va badiiy adabiyotlarni boyitish, chuqur tadqiq qilish jamiyatda ma'naviy va ma'rifiy soha rivojlanishiga asos bo'ladi. Ilmiy kutubxonalar faoliyati esa, xususan, ilmiy soha taraqqiyotiga poydevor bo'ladi. Tadqiqotda Qoraqalpog'iston Respublikasidagi dastlabki kutubxonalar tarixi va rivojlanish bosqichlari o'rganilgan. Ularning tarkibiga oid manbalarni keltirish orqali faoliyatiga ilmiy baho berilgan. Mazkur maqola ana shunday ilk kutubxonalarning olimlar ilmiy izlanishlarini olib borishidagi o'rni yoritib berilganligi bilan shu yo'nalishda qilingan boshqa tadqiqotlardan ajralib turadi.*

**Аннотация**

*Систематическое регулирование библиотечной деятельности, обогащение в ней научной и художественной литературы и их углубленные исследования являются основой роста духовно-просветительской сферы в обществе. Деятельность первых библиотек, в частности, является фундаментом для развития научной сферы. В исследовании изучены история и этапы развития первых библиотек в Республике Каракалпакстан. Данная статья отличается от других исследований в этом направлении тем, что освещает роль таких научных библиотек в проведении научных исследований учеными.*

**Abstract**

*The systematic regulation of library activities, the enrichment of scientific and fiction literature in it and their in-depth research are the basis for the growth of the spiritual and educational sphere in society. The activity of scientific libraries, in particular, is the foundation for the development of the scientific sphere. The study explores the history and stages of development of first libraries in the Republic of Karakalpakstan. This article differs from other studies in this direction in that it highlights the role of such first libraries in the conduct of scientists' researches.*

**Ключевые слова:** Каракалпакстан, библиотека, научная библиотека, ученые, научные исследования.

**Kalit so'zlar:** Qoraqalpog'iston, kutubxona, ilmiy kutubxona, olimlar, ilmiy izlanishlar.

**Key words:** Karakalpakstan, library, scientific library, scientists, scientific research.

**KIRISH**

Har bir mamlakat ta'lim, ma'naviyat va ma'rifat sohasida jiddiy islohotlarni olib bormas ekan, rivojlanish va yuksalishda ortda qolib ketaveradi. Albatta, bu jarayon bir-ikki kunda emas, yillar davomida tizimga solinadi, sayqallanadi. Mamlakatimizda yuzaga kelayotgan bugungi zamonaviy talab va istaklardan kelib chiqsak, davlatimizning har bir hududida madaniy, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni saqlab qolishga qaratilgan yangicha chora-tadbirlar jadallik bilan amalga oshirilayotganiga guvoh bo'lamiz. Ayniqsa, kutubxonalar faoliyatini tizimli ravishda tartibga solish, undagi ilmiy va badiiy adabiyotlarni chuqur tadqiq qilish, olimlar va ilmiy tadqiqotchilar faoliyatini o'rganish bugungi kundagi muhim vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 7-iyundagi "O'zbekiston Respublikasi aholisiga axborot-kutubxona xizmati ko'rsatishni yanada takomillashtirish to'g'risida"gi 4354-son Qarorida yurtimizda axborot-kutubxona sohasini rivojlantirish Konsepsiyasi ishlab chiqilib, kutubxonalarda saqlanayotgan milliy madaniy merosni asrab-avaylash va boyitish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish hisobiga axborot-kutubxona muassasalari faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilandi. Xususan, Qoraqalpog'iston Respublikasida kutubxona tarmoqlarini yanada takomillashtirish, ma'naviy-ahloqiy qadriyatlarni saqlab qolishga yo'naltirilgan prinsiplar yangi axborot markazlarini barpo etish zarurati ta'kidlandi. Shuningdek,

aholini yanada kengroq va tizimli axborot bilan ta'minlash uchun zarur shart-sharoitlar yaratish chorolari qayd etildi[1].

Ushbu maqolada Qoraqalpog'iston Respublikasidagi dastlabki va hozirda ham faoliyat olib borayotgan kutubxonalarning shakllanishi va rivojlanish tarixi, faoliyati, unda saqlanayotgan adabiyotlarning olimlar faoliyatidagi o'rnini xususida to'xtalib o'tiladi. Ma'lumki, Qoraqalpog'iston Respublikasi o'zining boy o'tmishi, milliy maldaniyati, o'ziga xos urf-odatlar bilan dunyo ahlini birdek qiziqtirib keladi. Bu esa ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilishida o'z aksini topadi. 1925-1930-yillarda Qoraqalpog'istonda arxiv hujjatlarini to'plash va o'rganish, ayniqsa, kutubxonalardagi ilmiy manbalarni tadqiq qilish ishlari boshlangan.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR


O'sha yillari olim va ilmiy izlanuvchilar tomonidan turli tadqiqotlar olib borilib, qoraqalpoq xalqining ko'p asrlik merosi va tarixiga oid manbalar to'plana boshlandi. Masalan, 1920-yilning ikkinchi yarmida ilmiy etnografiya instituti xodimi G.Shuls, 1926-1930-yillarda sharqshunos olim E.S.Malov boshchiligidagi guruhlar qizg'in faoliyat olib borishdi[2]. Shuningdek, sobiq Ittifoq Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti tomonidan ko'plab ilmiy ishlar olib borildi va 1932-yilda institut qoshida akademik A.N.Samoylovich, professorlar N.N.Palmov, P.P.Ivanov, A.I.Ponomarev, S.N.Chernovlar boshchiligida olimlar ilmiy izlanishlar olib borishdi.

### NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tarixchilarni qoraqalpoqlar tarixiga oid monografik va jurnal adabiyotlari bilan tanishtirish maqsadida qisqacha bibliografiya ishlab chiqilgan. Bunda A.N.Samoylovich guruhi tomonidan olib borilgan tadqiqotlar qoraqalpoqlar tarixini yozishga asos bo'lib xizmat qilgan[3]. 1933 – 1944-yillarda Respublikaning shimoliy viloyatlarida tarixiy-folklor mutaxassisi A.A.Sokolov boshchiligidagi Qoraqalpoq ilmiy-tadqiqot institutining ekspeditsiyasi olib borildi. Shu o'rinda, Respublikada yirik kutubxonalar tashkil etilib, ular keyinchalik ilmiy-tadqiqot jarayonlarini o'zida mujassamlashtirgan muhim ilmiy obyektlarga aylanib borgan. Respublikadagi kutubxona filiallari XIX asrning 90-yillarida takomillashtirilgan To'rtko'l (Petro Aleksandrovsk) shahar kutubxonasiga aylandi[4].

Uning birinchi kitob fondi odamlarning o'z kutubxonalaridan olib kelgan kitoblari hisobiga yaratilgan. Mahalliy aholi mazkur kutubxonaning fondini ko'paytirishga katta hissa qo'shganlar. 1907-yilning 7-martida u "Shahar xalq kutubxonasi" rasmiy maqomini olgan. To'rtko'l (Petro Aleksandrovsk) shahar obodonlashtirish yig'ilishida uning nizomi tasdiqlanib, 41 xodimdan iborat komissiya saylandi. Kutubxona shahar aholisiga o'z kitoblari, gazeta va jurnallaridan foydalanish huquqini taklif qildi. Kutubxona mablag'i va kutubxona xodimlariga oylik shahar soliqlaridan, ayrim abonent to'lovlari hisobidan, odamlarning xayriyalaridan shakllangan. Nizomga ko'ra, kutubxona a'zolari va abonentlari barcha jinsdagi shaxslar bo'lishi mumkin, voyaga yetmaganlar, ta'lim muassasalari o'quvchilari, kam ta'minlangan va iroda erkinligi sud tomonidan cheklangan shaxslar bundan mustasno edi. 1912-yilda kutubxona fondi jurnallar bilan birga 3300 nomdan iborat edi. Kutubxona ochilganidan 100 kun o'tib, unga 697 kishi kelib, uyda o'qish uchun 2032 jild adabiyot olgan. 1916-yilda barcha o'quv yurtlari bo'limlarida jami 1647 ta kitob bo'lgan. 1919-yil aprel oyida ishchi va soldat deputatlari kengashida kutubxonani va yirik ishlab chiqarish korxonalarini egalardan milliyalashtirish uchun komissiya tuzildi. May oyida To'rtko'l'dagi Novikova shaxsiy kutubxonasi, sobiq podshoh ma'muriyati kutubxonasi va boshqa to'plangan kitoblar komissiya tomonidan milliyalashtirildi. Shahar kutubxonasi negizida To'rtko'l xalq (keyinroq Xorazm Respublikasi) kutubxonasi sifatida qayta tashkil etilgan, kutubxonada yetti mingdan ortiq kitob va boshqa turdagi nashrlar mavjud edi.

1-diagramma




## TARIX

XX asrning 20-yillarida Qoraqalpog'iston hududidagi shaharlarda kutubxona filiallari, klublar ko'paydi. Qishloq va ovullarda maktablar, o'quv zallari tashkil etildi[5]. 1921-yilda ularning soni: choyxonalar oltita; o'quv zali sakkiztaga yetgani hududda madaniyat va kitobxonlikning o'sishi kuzatilganini anglatadi. Oradan 7 yil o'tib, choyxonalar soni 13 taga, kutubxonalar soni to'qqiztaga yetgani ham bu boradagi rivojlanish asta-sekinlik bilan amalga oshganidan dalolat beradi. 1933-yilda 43 ta kutubxona, 41 ta choyxona, 71 ta o'quv zali qayd etilgani hamda 1940-yilda respublikada 195 ta kutubxona ro'yxatga olingani o'sish sur'ati keskin ortganidan darak beradi (*Qarang: 1-diagramma*).

Urushdan keyingi yillarda O'zbekiston bo'yicha 1774 ta kutubxona faoliyat yuritgan bo'lsa, shulardan 176 tasi Qoraqalpog'iston hududiga to'g'ri keladi. Bundan tashqari, 1 ta respublika miqyosida, 16 ta tuman va shahar, 6 ta qishloq, 2 ta bolalar kutubxonalarini fuqarolarga xizmat ko'rsatgani jamiyatda ilmiy-ma'rifiy muhit darajasi past bo'lmaganligini ko'rsatadi. Qoraqalpog'istonda mavjud barcha kitoblar adadini yillar kesimida quyidagi diagrammada yaqqol ko'rish mumkin.

2-diagramma



Shu o'rinda, Respublikada turli yo'nalishlarda ilmiy izlanishlar olib borilishi, yosh tadqiqotchilarning manbalar bilan ishlash ehtiyoji oshib borishi, umuman, jamiyat hayotida ma'naviy-ma'rifiy bilimlarga bo'lgan talabning ortishida kutubxonalarning ta'siri katta bo'ldi. Quyida ularning ayrimlari haqida ma'lumotlar to'plandi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Respublika kutubxonasi 1936-yili To'rtko'l (Petro Aleksandrovsk)da shahar kutubxonasi negizida tashkil etilgan. Dastlab kutubxona fondi 30480 nusxani tashkil etgan. Shu yili kutubxona Nukus shahriga ko'chirilgan va Respublika kutubxonasiga aylantirilgan. 1941-yilga kelib kitob fondi 31 046 nusxani tashkil etgan. Ahamiyatlisi, kutubxonada "Qizil Qoraqalpog'iston"dan to hozirgi kunga qadar 1941-yildan beri saqlanayotgan 586 nomdagi mahalliy gazeta-jurnallar, XIX asrga oid 200 ga yaqin nodir adabiyotlar mavjud[6]. Mazkur bosma nashrlar arxivi tadqiqotchilarga o'z ilmiy izlanishlarini olib borishda ishonchli manba sifatida xizmat qilib kelmoqda. O'rta Osiyo tarixi va adabiyotiga oid nashrlardan, jumladan, Ibn Sinoning "Tib qonunlari" (XVII asr), Alisher Navoiy, Firdavsiy, Berdaq, Ajiniyoz, "Qirq qiz" asarlaridan foydalanmoqda. "Alpomish", "Bahodir", "Edige" dostonlari, qomuslar, ko'p jildli asarlar, tarixiy materiallar kitob fondining chin ma'nodagi boyligi sanaladi. Kutubxona "Kitob saqlash", "To'plash va qayta ishlash", "Kitobxonlarga xizmat ko'rsatish", "Ilmiy-metodik", "Bibliografik ma'lumot berish", "Huquqiy axborot bo'limlari" hamda O'lkashunoslik, Chet el adabiyotlari, Kitob almashish, Depozitar saqlash sho'bxalaridan iborat. Qoraqalpog'iston Respublikaning yana bir tarixiy kutubxonalaridan biri bo'lgan Respublika bolalar kutubxonasi 1962-yilda shahar bolalar kutubxonasi negizida tashkil etilgan. Ushbu kutubxonaning ochilishi natijasida bolalar adabiyotlarini jamlash, ularni yosh kitobxonlar e'tiboriga havola qilish, bu turdagi adabiyotlar tadqiqini olib borish zarurati tug'ildi. Dastlab kutubxona fondi 2 ming nusxadan iborat bo'lgan bo'lsa, 1965-yilga kelib, bu raqam 33234 nusxaga yetgan. Respublikada faoliyat olib borayotgan zamonaviy tipdagi kutubxonalarning asosi – shubhasiz yuqorida sanab o'tilgan tarixiy ilm maskanlari ekanini unutmazlik kerak. Ularning borgan sari resurs bazalari boyitilib, xizmat qamrovi kengayib borayotganini alohida ta'kidlash lozim. O'zbekiston

Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limining fundamental kutubxonasi – respublikadagi asosiy va bosh ilmiy kutubxona sanaladi. Mazkur kutubxona Amudaryoning quyi oqimidagi mahalliy va xorijiy adabiyotlar, davriy nashrlar, qo'lyozma va ilk bosma kitoblarning eng yirik kitob jamg'armasi hisoblanadi. Ilmiy kutubxona 1931-yilda o'sha paytdagi avtonom respublikada Qoraqalpog'iston kompleks ilmiy-tadqiqot institutining tashkil etilishi munosabati bilan ilmiy markaz sifatida shakllantirilgan.

Mustaqillik davriga qadar mazkur kutubxona Qoraqalpog'istonda ilmiy izlanishlar olib borgan olimlar va tadqiqotchilar uchun asosiy va birlamchi manba sifatida xizmat qilgan. 1992-yildan ilmiy kutubxona O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limining fundamental kutubxonasiga aylantirildi. Kutubxonaning kitob fondi o'ndan ortiq tildagi, jumladan, qoraqalpog, o'zbek, qozoq, tatar, turkman, qirg'iz, oltoy, ozarbayjon, uyg'ur, arab, fors, ingliz, nemis, polyak va boshqa tillardagi kitoblarni qamrab olgan.

O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi Fundamental kutubxonasi 126861 nusxa kitob fondiga ega bo'lib, unda 30dan ortiq tillarda axborot resurslari va hujjatlar saqlanmoqda. Kitob fondining tarkibi dissertatsiyalar, avtoreferatlar, ilmiy hisobotlar, qo'lyozma manbalar, litografik nashrlar, mikrofilmlar, ekranga proektsiyalash uchun tayyorlangan shaffof fotosuratlar, gazeta-jurnallarning yillik to'plamlari, slaydlar, geografik xaritalar, milliy naqshlar eskizlari, fotoreproduksiyalar, ilmiy va badiiy adabiyotlar, audio-kasetalar, kompakt-disklar hamda elektron resurslardan tashkil topgan. Kutubxonada saqlanayotgan turkiy xalqlarning madaniy tarixiga oid arab yozuvida qayd etilgan arab, fors va turkiy tillardagi qulyozmalar, toshbosma nashrlar, shuningdek, qoraqalpog og'zaki ijodi, yozma adabiyoti na'munalaridan tashkil topgan hujjatlar asosida kutubxonaning qo'lyozmalar fondi 2005-yilda noyob obyektlar tarkibiga kiritildi.

Kutubxonada "Qo'lyozmalar fondi", "Shaxsiy kolleksiyalar fondi", "Avtoreferatlar fondi", "Dissertatsiyalar fondi", "Kitob-almashuv fondi", "Jurnallar fondi", "Gazetalar fondi", "Ilmiy hisobotlar fondi", "Mikrofilm va slaydlar fond"lari tashkil qilingan. Shuningdek har hil davrlarda tushirilgan rasmlar fondi ham mavjud. Kitob fondida ilmiy va badiiy nashrlardan tashqari dunyoning qo'lyozma fondlari analogida yo'q nodir qo'lyozmalar, respublikamiz hududida amalga oshirilgan arxeologik va folklor ekspeditsiyalari davrida yozib olingan va ilmiy xodimlar tomonidan yig'ib olingan katta ilmiy ahamiyatga ega yozma manbalar ham mavjud. Hozirgi kunda mazkur fondta 3783 nusxa qo'lyozma manbalar, 1628 nusxa noyob nodir nashrlar saqlanmoqda. O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi shu kunga qadar nafaqat davlatimiz balki dunyo ilm-fan rivojiga o'z hissasini qo'shgan olimlarni tarbiyalab chiqargan. Tabiiyki, ularning yaratgan ilmiy maktabi va ilmiy ishlari aks ettirilgan nashrlarsiz bugungi ilmiy jarayonni ko'z oldimizga keltirish qiyin. Fundamental kutubxona fondida saqlanayotgan axborot resurslar negizida "noyob nashrlar", "nodir qo'lyozmalar", "majburiy nusxalar", "avtoreferatlar", O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi axborotnomasi jurnali, akademiklar, fan doktorlari hamda fan nomzodlarining ilmiy asarlari raqamlashtirilib, ilmiy-ta'limiy ma'lumotlar bazalari yaratilmoqda.

Olimlarimiz tomonidan yaratilgan turli sohalarga oid 1113 nusxa ilmiy asarlar raqamlashtirilib, ularning tarkibi dissertatsiyalar, avtoreferatlar, monografiyalar, ilmiy va ommabop risolalar, vaqtli matbuot sahifalarida e'lon qilingan maqolalar, darsliklar, o'quv qo'llanmalar, respublika va xalqaro miqyosidagi konferentsiya to'plamlariga kiritilgan maqolalar, taqrizlar, suhbatlar, akademiklarning faoliyati va ularning asarlari haqidagi nashrlarning to'liq matnlaridan tashkil topgan. Bugungi kunda elektron ma'lumotlar bazamizda jami 38701 nusxa axborot resurslari mavjud bo'lib, fundamental kutubxona fondidagi hujjatlar asosida 8000 nusxa hujjatlar raqamlashtirildi. Shundan 1379 nusxasi nodir nashrlar, 631 nusxasi qo'lyozmalar, 3186 nusxasi avtoreferatlar, 750tasi majburiy nusxalar, 142 nusxasi O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi axborotnomasi jurnali, 1912 nusxasi ilmiy nashrlar hisoblanadi[8]. Shubhasiz fundamental kutubxonalarining faxri unda nodir qo'lyozmalar saqlanishida namoyon bo'ladi. Bugungi kunda Respublika kutubxonalari qo'lyozmalar fondida Sharq qo'lyozmalari, toshbosma asarlar, allaqachon nashrdan chiqqan 100 jildlik qoraqalpog folklori, ekspeditsiya materiallari, mikrofilmlar, nodir kitoblar, tadqiqotchilarning dala yozuvlari va qoraqalpog xalqi og'zaki ijodidan yozib olingan milliy meros – dostonlar jamlangan. Shuningdek, xalq ertaklari, topishmoqlar va matallar, tarix arxeologiyasi, tilshunoslik, adabiyotshunoslik va tabiiy fanlarga oid ilgari nashr etilmagan materiallar, dissertatsiyalar, avtoreferatlar, ensiklopediyalar mavjudligi har qanday ilm ahlini quvontiradi. Qoraqalpog'iston ilm-fan taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan kutubxonalar haqida gap ketganda, shubhasiz Respublikadagi Oliy ta'lim muassasalari ARMLarining ish faoliyati katta ahamiyat kasb etadi. Quyida Qoraqalpog'istondagi ikkita ko'p yillik tarixga ega OTMning kutubxonalari faoliyatiga to'xtalib o'tamiz.

## TARIX

Nukus davlat pedagogika instituti O'zbekistonning shimoliy hududidagi ilk oliy o'quv yurtlari bo'lib, u 1934-yili o'sha vaqtdagi poytaxt hisoblangan To'rtko'l shahrida tashkil qilingan. 1976-yil Qoraqalpoq davlat pedagogika instituti bazasida Nukus davlat universiteti tashkil etilgan. 1992-yildan e'tiboran institut qoraqalpoq xalqi e'zozlagan buyuk alloma-shoir Ajiniyoz nomi bilan atalib kelmoqda[9]. Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universitetining axborot resurs markazi dastlab 1934-yili To'rtko'ldagi Qoraqalpoq o'qituvchilar instituti qoshida tashkillashtirilib kutubxona fondida 3000 nusxaga yaqin adabiyotlar bo'lib, u yerda ikkita xodim faoliyat yuritgan. 1976-yili Qoraqalpoq davlat universiteti tashkillashtirilgan vaqtda fundamental kutubxona fondida 240 ming nusxa kitob bo'lgan va 24ta xodim ish olib borgan. O'zbekiston Respublikas Prezidentining 2006-yil 20-iyundagi "Respublika aholisini axborot-kutubxona bilan taminlashni tashkil etish to'g'risida"gi 381-son qarori qabul qilindi.

Ushbu qarorga muvofiq Qoraqalpoq davlat universiteti axborot-resurs markazi bo'lib qayta tashkil etildi. Axborot – resurs markazining tarkibi 6 ta bo'limdan iborat. ARMda 650 odamga mo'ljallangan 10 ta o'quv zali xizmat ko'rsatmoqda. Axborot resurs markazining kitoblar fondi 552252 nusxa bo'lib, shundan 361591 darslik o'quv qo'llanma, 98563 ilmiy adabiyotlar, 40607 ga yaqin chet el adabiyotlar va 50743 dona boshqa da adabiyotlar saqlanmoqda[10].

## XULOSA

Xulosa qilib aytganda, olimlarimiz yaratgan ilmiy meroslarni yanada chuqurroq o'rganishda kutubxonalarning o'rni beqiyosdir. Mazkur ilmiy ma'lumotlar bazasi va tarixiy manbayi hisoblangan dastlabki kutubxonalar tadqiqotchilarning axborot olish va bilimni mustahkamlashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Biz yuqoridagi tahlillarimizga suyanib, Qoraqalpog'istondagi dastlabki kutubxonalar jamiyatimizning rivojiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy maskanlar ekanligini alohida ta'kidlab o'tishimiz joizdir. Mazkur kutubxonalarning shakllanishi va rivojlanish tarixidan keltirilgan manbalarni har tamonlama yanada o'rganish ilm-fanimizning barcha javhalari taraqqiyotiga katta hissa qo'shadi. Chunki barcha olim-u ziyolilar o'zlarining ilmiy ishlarini amalga oshirishda birinchi navbatda kutubxonalardan foydalanib, samarali ilmiy izlanishlar olib borganligini alohida ta'kidlash o'rindir. "Bizning havas qilsa arziydigan buyuk tariximiz bor. Havas qilsa arziydigan ulug' ajdodlarimiz bor. Havas qilsa arziydigan beqiyos boyliklarimiz bor" – degan edi Prezidentimiz. Kutubxonalar ham xalqimizning beqiyos moddiy va ma'naviy boyligi hisoblanadi. Shunday ekan, bunday tabarruk maskanlarning tarixini o'rganish har doim olimlar oldidagi dolzarb va eng asosiy vazifa sifatida qolaveradi.

## ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. Qarang: <https://lex.uz/docs/>. (National database of legislation of the Republic of Uzbekistan. See: <https://lex.uz/docs/>)
2. Самойлович А. Материалы по истории каракалпаков. Москва Издательство Академии наук СССР. 1935. 299 с. (Samoilovich A. Materials on the history of Karakalpakov. Moscow Publishing House of the USSR Academy of Sciences. 1935. 299 p)
3. Keltirilgan manba. (The source of)
4. Qoraqalpog'iston Respublikasi Axborot kutubxona markazining rasmiy veb-sayti ma'lumotlari. Qarang: <http://www.nukusibc.uz>. (Information on the official website of the Information Library Center of the Republic of Karakalpakstan. See: <http://www.nukusibc.uz>)
5. Реймбаев, Р. *Этапы развития библиотечного дела в Каракалпакстане* // – Нукус. ҚГУ. 2020. – 289 с (212-214 б). (Reimbaev, R. *Stages of development of library business in Karakalpakstan* // - Nukus. KarSU. 2020.-289 p (212-214 p)
6. Qilichboyev O. O'zbekistonning yirik kutubxonalari. Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. – Toshkent. 2004. 100 b. (Kilichbaev O. Large libraries of Uzbekistan. Publishing House of the National Library of Uzbekistan named after Alisher Navoi. - Tashkent. 2004. 100 p.)
7. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limining rasmiy veb-sayti. Qarang: <https://aknuk.uz/library.html>. (Official Website of the Karakalpak branch of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan. See: <https://aknuk.uz/library.html>)
8. Айтимова У. Ўзбекистон Республикаси фанлар академияси Қорақалпоғистон бўлими асосий кутубхонаси китоб фондлари, илмий асарларини рақамлаштириш муаммолари ва ечимлари. конф. – Тошкент: "Fan ziyosi" 2022. 295 б. (89-95). (Ayitova U. The main library of the Karakalpak branch of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan is the number of digitization and solutions to book funds, scientific works. Conf. - Tashkent: "Fan ziyosi" 2022. 295 p. (89-95)
9. Bazarbaev J., Abdullaeva Y., Pazilov A., Sultanov A., Ayapov Sh. Teberik bilim dargayi. – Nókis. Qaraqalpaqstan. 2010. 144 b. (Bazarbaev J., Abdullaeva Y., Pazilov A., Sultanov A., Ayapov Sh. Country Education Art. – Nukus. Karakalpakstan. 2010. 144 p)
10. Qarang: Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti sayti <https://karsu.uz/uz>